

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY TAFAKKURINI MULTIMEDIALI XALQ ERTAKLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

V.J.Seitmuratova,

*Toshkent amaliy fanlar universiteti,
Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi*

D.B.Xusanova,

*Toshkent amaliy fanlar universiteti,
Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi*

Tog'ayeva Feruza Shavkat qizi,

Toshkent amaliy fanlar universiteti, sirtqi ta'lim bo'limi Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi

Ayepbergenova Gulbanu Baxitbay qizi,

Toshkent amaliy fanlar universiteti, sirtqi ta'lim bo'limi Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy tafakkurini va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda ertaklarning tarbiyaviy ahamiyati o'rganiladi. Ertaklar bolalar uchun nafaqat qiziqarli hikoyalar, balki ijodiy tafakkur va tasavvur imkoniyatlarini kengaytiradigan, hayolini boyitadigan vosita sifatida muhim ahamiyatga ega. Maqolada tadqiqot davomida xalq ertaklari asosida olib borilgan ijodiy mashg'ulotlarning maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy tafakkur yuritishiga va fikrlashiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Ijodiy tafakkur, tasavvur, multimediyali xalq ertaklari, maktabgacha yosh, kognitiv rivojlanish, kompetensiya, mobil ilova.

Аннотация. В данной статье исследуется воспитательное значение сказок в развитии творческого мышления и мыслительных способностей детей дошкольного возраста. Сказки имеют важное значение для детей не только как увлекательные истории, но и как средство, расширяющее возможности творческого мышления и воображения, обогащающее их фантазию. В статье раскрывается положительное влияние творческих занятий, проведенных на основе народных сказок в ходе исследования, на развитие творческого мышления и мыслительной деятельности детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: творческое мышление, воображение, мультимедийные народные сказки, дошкольный возраст, когнитивное развитие, компетенция, мобильное приложение.

Abstract. This article examines the educational significance of fairy tales in developing the creative thinking and cognitive abilities of preschool children. Fairy tales are important for children not only as interesting stories, but also as a means of expanding creative thinking and imagination, enriching their fantasy and perception. The article reveals the positive impact of creative activities conducted on the basis of folk tales during the research process on the development of creative thinking and reasoning abilities of preschool children.

Keywords: creative thinking, imagination, multimedia folk tales, preschool age, cognitive development, competence, mobile application.

Kirish. «Insoniyat yaratgan bebaho madaniyat durdonalari eng avvalo har qaysi millatning folklor san'atida mujassam topgani hammamizga yaxshi ma'lum, holbuki, folklor san'ati, ta'bir joiz bo'lsa, bu - insoniyatning bolalik qo'shig'idir»- degan edi hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev [1]. Yurtboshimiz aytganidek, millat yaratgan xalq og'zaki ijodi haqiqatdan ham har bir xalqning madaniy-ma'rifiy durdonalarini o'zida

mujassam etib, bu esa milliy o'zlik, ma'naviyat, madaniyatni saqlab qolish va rivojlantirishdagi muhim rolini ko'rsatsa, bolalar xalq og'zaki ijodi esa o'zining beg'uborligi va tabiiyligi, tarbiyaviyligi bilan katta ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish pedagogika va psixologiyaning muhim yo'nalishlaridan biridir. Xalq ertaklari va multimedia texnologiyalari bolalarning tasavvuri, kreativ va kognitiv rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan.

L.N.Vaxrusheva ertaklarni axloqiy sifatlarni shakllantiruvchi vosita sifatida, Q.Ayimbetov esa xalqning ijodiy fantaziyasi mujassam ekanini ta'kidlaydi. R.X. Jumayev ertaklar bolalarda mustaqil va kommunikativ fikrlashni rivojlantirishini asoslaydi. L.S.Chibezkova esa ularning hissiy tarbiya va mehr-shafqatni shakllantirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi, D.A.Abdurahimova esa milliy qadriyatlarni singdirishdagi rolini yoritadi.

Zamonaviy tadqiqotlar multimedia vositalarining samaradorligini tasdiqlab, ularning bolalarda diqqat, ijodiy faollik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishini ko'rsatadi. Umuman, adabiyotlar ertaklar ijodiy tafakkurni rivojlantirishda muhim vosita, multimedia esa bu jarayonni yanada samarali qiladi degan xulosani beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda eksperimental va pedagogik kuzatuv usullaridan foydalanildi. Tajriba maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tkazilib, bolalarga multimediali xalq ertaklari asosida mashg'ulotlar tashkil etildi. Tadqiqot jarayonida interfaol metodlar, vizual va audio materiallar, shuningdek, ijodiy topshiriqlar qo'llanildi. Bolalarga ertaklarni tomosha qilish, ularni tahlil qilish va mazmunini qayta hikoya qilish kabi faoliyatlar berildi. Natijalar taqqoslash va kuzatuv asosida tahlil qilinib, multimediali ertaklar bolalarning ijodiy tafakkuri va fikrlash qobiliyatiga ta'siri baholandi.

Tahlillar va natijalar. Ertak axloqiy tarbiya berishning eng kuchli vositasi hisoblanadi. Ertak yaxshilik va adolat kuchiga ishonishni o'rgatadi. Obrazlarning soddaligiga va syujetning oddiyligiga qaramay, ertaklar eng muhim narsalar haqida hikoya qiladi: ular hayot ma'nosi, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash haqida so'z yuritadi, ularda axloqiy ma'no mujassamdir, shuning uchun ularning tarbiyaviy ahamiyati juda kattadir [2].

Qaysi bir millatning ertaklarini olib qaramaylik ularning mazmunidan xalqning daholigi, ijodiy tafakkuri, buyuk fantaziyasi, hayoli, yaxshilik va adolatlik haqidagi o'y-fikrlarini, haqiqatparvarligini ko'rish mumkin. Xalq o'z ertaklarida yaratilgan orzular va tasavvurlar qadimgi davrlardan insonlarning ijodkorligini, kreativligini va tabiat, jamiyat bilan o'zaro munosabatini aks ettiradi. Ayniqsa tabiatning qudrati va uning sirlarini bilishga bo'lgan orzu-istaklar xalq ertaklarida keng yoritilgan, bu esa insonlarning har doim yangilikka, bilishga va tushunishga intilib yashaganliklarini ko'rsatadi. Masalan qoraqalpoq folklorist olimi Q.Ayimbetovning aytishicha: "Qadimgi davrlarda insoniyat tabiatning sirlarini tushinib yetishmasdan tabiyatni qudratli deb tushinib, ko'p ertaklar

yaratgan. Hayoliy bo'lsa ham barcha davrlarda odamlar uchun kun kechirishni yengillashtiruvchi, tabiyat sirlarini bilishni orzu qilishgan. Masalan, odamlar olovsiz ovqat pishsa ekan, uzoqni ko'rsak ekan, tirik hayvonlar insonlarga xizmat qilsa ekan, osmonda ushsak ekan deb orzu qilgan» deb yozadi [3]. Demak, bunnan ko'rinib turibdiki, xalqning hayoliy yaratgan g'oyalari ijodiy yetuklikka ega bo'lib, bugungi zamonda texnikalarning rivojlanishi o'z tasdig'ini topmoqda.

Ertakning pedagogik qiymati shundan iboratki, bolalar unda to'g'rilik, halollik g'alaba qilganidan, kambag'al kishilar qiyinchilikdan qutilganidan, ya'ni yaxshilik, ezgulik ro'yobga chiqqanidan va yomonlik, yovuzlik mahkumlikka uchraganidan quvonadilar. Ular hayotda ham doimo shunday bo'lishini istaydilar [4]. Shuningdek, ertaklar bolalarga aqlohiy, jismoniy va estetik didni shakllantirish yanada bolaning ijtimoiy moslashuvida ham muhim ahamiyatga ega. Bolalarda Vatanparvarlik, o'z yurtiga sodiqlik va kerakli inson bo'lib yetishish kabi ma'suliyat hissiyotini ham shakllantiradi.

Ertak tili bolaga tushunarli bo'lib, unga yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi farqni oson tushuntirish, harakat sabablarini va uning oqibatlarini anglash imkonini beradi. Ertak insonning axloqiy fazilatlari va u duch keladigan hayotiy vaziyatlar o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikni ko'rsatadi, shuningdek, bolaning hamdardlik qila olish va boshqalarni tushunish qobiliyatini shakllantiradi. Bundan tashqari, hech bir bola pand-nasihatni yoqtirmaydi, ammo ertak bevosita o'rgatmaydi. U qandaydir vaziyatda qanday harakat qilish yaxshiroq ekanligini shunchaki ishora qiladi. Ertaklarning yaxshi tomoni shundaki, ularda uzoq va zerikarli mulohazalar yo'q. Harakatning xilma-xilligi va kuchli dinamikasi bolalarda doimiy va so'nmas qiziqishni uyg'otadi [5].

Oilada qaysidir bir ijodkor shaxsning bobosi yoki buvisi ertakchi bo'lgan kishining maroq bilan aytib bergan ertaklari kelajakda nabirasini ulug' ijodkor odam, mashxur yozuvchi yoki artist bo'lishiga olib kelgan [6]. Darhaqiqat, inson uchun bolalikda eshitgan ertaklarning hayoti davomida unga qandayda bir mo'jizani, yaxshilikka, ezgulikka, orzularga intilib yashash bilan birga ijodiy tafakkur yuritishni ham bir umr o'rgatib qoyadigan sehrli asar desak ham bo'ladi.

Bolalar ertaklarni tinglash yoki multimedia orqali ko'rish jarayonida uning mazmunini tahlil qiladi, sevimli qahramonlari boshidan kechirgan vaziyatlarni his etadi va muammoli holatlardan chiqish yo'llarini o'ylab, ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Shu bilan birga, ularda mehribonlik, hamdardlik va do'stlik kabi ijobiy fazilatlar shakllanadi.

Multimedia vositalari maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda samarali bo'lib, ularning tasavvuri, estetik didi va ijodiy tafakkurini kengaytiradi. Mobil ilovalar, virtual muhit va multimediali ertaklar bolalarning faol ishtirokini ta'minlab, yangi obraz va voqealarni yaratishga undaydi. Audio va vizual elementlar birgalikda kognitiv rivojlanishni kuchaytirib, ta'limga qiziqishni oshiradi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishda ertaklardan foydalanishning samarali usul va uslublarini aniqlashdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasida Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat dasturi ishlab chiqilgan bo‘lib unda “...dasturda turli faoliyatlarida bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlanish sohalarining taxminiy mazmunini belgilaydi, masalan: bolalar faoliyatining turlariga “badiiy adabiyot va folklorni idrok etish” faoliyati keltirilgan [7]. Dasturda belgilangan vazifalarni hisobga olgan holda bolalarni xalqning milliy qadriyatlari bilan tanishtirish, milliy o‘zlikni anglash, bolalarni bolaligidan folklor san’atiga qiziqtirish muhim vazifalar bo‘lib kelmoqda. Bu vazifalarni bajarishda ko‘proq maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilariga yuzlanamiz. Bolalarga har kuni ertak aytib berish, multimedia texnologiyalarida taqdim etish, yoki guruhda sahnalashtirish, turli innovatsion usullarda tashkillashtirish, ularni ertaklar olamiga qiziqtirish bu tarbiyachining o‘zidagi kasbiy kompetentligini to‘la ko‘rsatishi hisoblanadi.

Bolani tarbiyalashda ertak olamini to‘liq ishlatish kerak. Bir ertak orqali bolaning “yaxshi” va “yomon” nima ekanligini tushunishi osonroqdir. Bola o‘zini o‘zi ijobiy ertak qahramon sifatida taqdim etadi. Ertak bolaning to‘liq rivojlanishi uchun eng qulay vositalardan biridir. Agar siz bolalarning yosh xususiyatlari bilan bog‘liq ertaklarni to‘g‘ri tanlasangiz, bolaning hissiy holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan bo‘lasiz [8].

Tarbiyachi ertaklarni bolalarga o‘rgatishda faqat o‘qish emas, balki muhokama qilish, sevimli qahramonlarning rasmini chizish, rang-barang buyoqlarda ishlash, syujetning yangi variantlarini o‘ylab topish va sahnalashtirish orqali ijro etish kerak. Shunda ertaklar bolaga dunyoni barcha rang-barangligi bilan kashf etishda, tasavvurni va ijodiy tafakkurni rivojlantirishda yordam beradi.

Interaktiv videotasvir ertak – bu bolalar bog‘chasidagi bolalar uchun mo‘ljallangan dam olish faoliyati shakli bo‘lib, u ta’lim, tarbiya va rivojlanish vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan, maxsus yaratilgan ertak-filmsiz yordamida bolalar muammoni hal qilishda faol ishtirok etishini ta’minlaydi. Videotasvir ertakning qahramonlari nafaqat teatr sahnasidagi harakatni ijro etadilar, balki tomoshabinlarga savollarga javob berishni, jumboqlarni yechishni, raqsga tushishni, musiqa o‘yini o‘ynashni taklif qiladilar [9]. Haqiqatdan ham, tarbiyachi faqat ertakni video tasvirlarda ko‘rsatib qo‘ymasdan bolalar bilan sahnalashtirishni, shu ertak asosida topishmoqlar topishni, raqs va musiqiy o‘yinlar tashkil qilganda bolada yanada faollik oshadi, bu ertak haqidagi tushunchalari mustahkamlanib boradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida kundalik mashg‘ulotlarni ko‘rgazmali qurollarsiz faoliyat yuritish mumkin emas. O‘tkazilgan tajribalar shuni ko‘rsatadiki, multimediyadan foydalangan holda o‘tkazilgan mashg‘ulotlar dasturiy ta’minotga qaraganda bir qator afzalliklarga ega, bunda:

harakatlar, animatsiyalar uzoq vaqt davomida bolaning e'tiborini jalb qiladi; ekrandagi ma'lumotlar o'yin shaklida katta qiziqish uyg'otadi; ma'lumotning tasvirli turi o'qish va yozishni bilmaydigan maktabgacha yoshdagi bolaga tushinarli; olingan bilimlar xotirada uzoq vaqt saqlanib qoladi va qayta qo'llash osonroq; bolalar kundalik hayotida ko'rish mumkin bo'lmagan holatlarni imitatsiyalash qobiliyati oshadi [10].

Bunnan ma'lumki multimediali ertaklar bolalar uchun qiziqarli va har taraflama qulayli, samarali bo'lgan usuldur.

"...bolalar og'zaki ijodi janrlarini kompyuterda foydalanish tarbiyachi uchun cheksiz imkoniyatlarni ochib beradi. Kompyuter tarbiyachiga bolalar va ota-onalar bilan ishlashda, o'quv faoliyatiga tayyorgarlik ko'rayotganda eng yaxshi yordamchisi bo'ladi. Bola ertakni animatsiyalar yoki multimediya orqali ko'rganda bir vaqtning o'zida bolaning xotirasida ko'proq ma'lumotlar to'planadi va buning natijasida ertakni yaxshi o'zlashtirish, qiziqish paydo bo'lib mazmunini yaxshi tushinadi" [11].

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy tafakkur yuritishi, fikrlashi, ularning tasavvur qobiliyati, o'z fikrlarini ifodalashi ijodiy qobiliyatlari bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Uning ta'siri faqat intellektual rivojlanishga taalluqli bo'lmay, bolalarga qiyinchiliklarni yengishga, o'ziga ishonchni oshirishga va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, ijodiy tafakkur bolaga tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga, shaxsiy qiziqishlarni izlashga va sog'lom ijtimoiy munosabatlar o'rnatishga yordam beradi [12].

Bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda multimediali ertaklardan foydalanishning bir necha samarali usullari mavjud.

Vizual o'yinlar va animatsiyalar orqali ertaklarni taqdim etish bolalarning diqqatini jalb qiladi va faol ishtirokini ta'minlaydi. Masalan, ertak qahramonlarini topish kabi o'yinlar orqali ijodiy fikrlash rivojlanadi.

Interfaol darslarda bolalar ertak qahramonlari o'rnida o'zlarini tasavvur qilib, mustaqil qarorlar qabul qiladi va savollarga javob beradi. Bu jarayon ularning ijodiy tafakkurini kuchaytiradi.

Audio-vizual taqdimotlar ertakni tinglash va tasvirlarni ko'rishni birlashtirib, bolalarning tasavvur va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi.

Jamoaviy ijodiy loyihalarda esa bolalar ertak asosida sahnalashtirish yoki kichik teatrlar yaratib, ijodiy qobiliyatlarini namoyon etadi hamda muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Bir-birlari bilan muloqot 6-7 yoshli bolalar uchun katta ahamiyatga ega. Ularning o'zaro munosabatlari barqarorlashadi va aynan shu davrda bolalar do'stligi boshlanadi. Bolalar o'z taassurotlarini bajonidil baham ko'radilar, voqealar va odamlar to'g'risida fikr

yuritadilar, qaerda bo‘lishganini, nimani ko‘rganlarini va hokazolarni so‘rashadi, ya‘ni ular boshqa faoliyat bilan bog‘liq bo‘lmagan "muloqot"li vaziyatlarda qatnashadilar [13].

Ushbu tadqiqotda eksperimental usul qo‘llanildi. Viloyat va tumanlardagi maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida xalq ertaklarini multimedia asosida ta‘limga integratsiya qilish maqsad qilingan. Tajriba guruhidagi bolalarga multimediali ertaklar namoyish etilib, ular asosida ijodiy mashg‘ulotlar o‘tkazildi. Jarayonda bolalar obraz va voqealarni tahlil qilish hamda ertak mazmunini qayta yaratish topshiriqlarini bajardilar, bu esa ularning ijodiy tafakkuri va fikrlashini rivojlantirdi.

Natijalarga ko‘ra, ertak asosidagi mashg‘ulotlar va interfaol darslar bolalarda ijodiy fikrlash darajasini sezilarli oshirdi. Tarbiyachilar esa xalq ertaklari bolalarning psixik rivojlanishi, tasavvuri va ijodiy tafakkurida muhim rol o‘ynashini ta‘kidladilar. Shuningdek, ertaklar bolalarda aqliy va axloqiy tarbiya, kasbga yo‘naltirish hamda kelajak maqsadlarini shakllantirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi qayd etildi.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, multimediali ertaklar maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tushunarli, qiziqarli va interfaol ta‘lim vositasi bo‘lib, ularning ijodiy tafakkuri, tasavvuri va fikrlash qobiliyatini samarali rivojlantiradi. Audio va vizual materiallar bolalarga murakkab syujetlarni oson tushunish, mustaqil fikrlash va his-tuyg‘ularini ifodalash imkonini beradi. Bolalar yangi yakunlar yaratish orqali ijodiy yondashuv va fantaziyasini kengaytiradi, bu esa kognitiv va intellektual rivojlanishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Multimediali ertaklar ta‘lim jarayonini samarali qilib, tarbiyachi uchun ham qulay vosita hisoblanadi. Ular bolalarda mediasavodxonlikni oshirish, raqamli texnologiyalarga qiziqishni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ota-onalar esa mobil ilovalar orqali uy sharoitida bolalarning rivojlanishiga hissa qo‘shishi mumkin. Shu asosda maktabgacha ta‘limda multimediali ertaklardan keng foydalanish, elektron ertak kitoblari va interfaol mashqlar tizimini yaratish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xalqaro baxshichilik san‘ati festivali ochilishiga bag‘ishlangan tantanali festivalidagi nutqi. 6-aprel.2019-y <https://www.gazeta.uz/oz/2019/04/07/nutq/>.
2. Познавательные сказки для детей 4-7 лет. Методическое пособие/ Сост. Л.Н. Вахрушева. – М.: ТЦ Сфера, 2011. – 80 с
3. Ayimbetov Q. "Xalq danaligi" Nókis (qayta nashr) 2022-y, 35-bet.
4. Jumayev R.X. "Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda ertaklar o‘rni" Ta‘lim va innovatsion tadqiqotlar (2024 йил № 2) 120-b.
5. Чибезкова Л.С. Роль сказки в воспитании детей дошкольного возраста [Электронный ресурс] <https://www.maam.ru/detskijsad/rol-skazki-v-vospitani-detei-doshkolnogo-vozrasta-408664.html> (дата обращения: 24.10.21)
6. Abdurahimova D.A. Xalq og‘zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirish//ped.fan. dok...diss. -Toshkent. -2020. -96-bet.
7. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim Vazirligining «Ilk qadam» Davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan 2-nashr) 42-bet.

8. Chorjeva N. “O‘zbek xalq ertaklarining bola tarbiyasidagi o‘rni”. Jamiyat va innovatsiyalar - Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 02 (2023) / ISSN 2181-1415.
9. Юданова А.И. Интерактивная видеосказка как инновационная форма досуговой деятельности детей старшего дошкольного возраста. ISSN 2410-700X. Международный научный журнал «символ науки» № 10-2 / 2021.
10. Мультимедиа в детском саду- Время знаний. 3-стр. <http://io.nios.ru/articles2/88/3/ispolzovanie-multimediynyh-tehnologiy-v-dou>
11. Bekimbetova A.A. Seitmuratova V.J. “Maktabgacha yoshdagi bolalarga qoraqalpoq bolalar xalq og‘zaki ijodini o‘rgatishda multimedia taqdimoti va AKT dan foydalanishning ahamiyati”. Taъlim va innovacion tadqiqotlar (2022 йил №12) ISSN 2181-1709 (P) 62-bet.
12. Novita Eka Nurjanah* Universitas Negeri Jakarta, INDONESIA. Developing Creative Thinking in Preschool Children: A Comprehensive Review of Innovative. European Journal of Educational Research Volume 13, Issue 3, 1303 – 1319. ISSN: 2165 8714 <https://www.eu-jer.com/>
13. Shin A.V., Mirziyoeva Sh.Sh., Grosheva I.V. va b. “Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida ta’lim jarayonini rejalashtirish”. Uslubiy qo‘llanma. Toshkent-2020. 106-bet.
14. Seitmuratova V.J. “The development of creative thinking in preschool children aged 5-7 through multimedia-based karakalpak folk tales and children's poems”. International Conference on Adaptive Learning Technologies.
15. “Ilm yo‘li” variativ dastur. (6 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash), T.:2018.

